

TA'LIM BOSQICHLARIDA JAHON ADABIYOTINI O'RGATISHDA SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH

(Iliada dostoni misolida)

Egamberdiyeva Shamsiya Mamajonovna
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Sevinch Iskandar qizi Tursunboyeva
Namangan davlat pedagogika
institutining 1-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada jahon adabiyotining o'lmas buyuk eposi Homer qalamiga mansub "Iliada" dostonini chuqur o'rganish va yosh avlodga o'rgatish dolzarbligi, u orqali yoshlarga jahon adabiyoti durdonalarining janriy tabiati hamda badiiy-kompozitsion xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyati, tarbiyalanuvchilarni jahon adabiyotiga qiziqishlarini orttirish va ularning chet el adabiyotidan kerakli xulosalarni olishiga yordam berish haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy barkamollik, ma'buda, etnografiya, personaj, ijtimoiy-maishiy hayot, vobastalik

Bugungi kunda jamiyatimiz yoshlari orasida o'zbek adabiyoti durdonalariga qiziqish bilan bir qatorda jahon adabiyoti namunalarini o'qishga ishtiyoq ortib bormoqda. Ayniqsa ta'lim jarayonida jahon adabiyoti va o'zbek adabiyotining uyg'unlashishi o'quvchilarda darsni o'zlashtirish sifati, samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu uyg'unlik esa, xalqlarning ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog'langanligi tufayli har bir kishiga insoniyat tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari vobastalikni his etishga, amaliy faoliyatda esa yuksak axloqiy g'oyalarni asos qilib olishga yordam beradi. Shuning uchun ham adabiy asarlarni to'plash, o'rganish va nashr etish hamisha dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu ulkan boylikning asosiy tarkibiy qismlaridan birini jahon adabiyoti, jumladan, "Iliada" dostoni tashkil etadi. Ko'hna G'arb adabiyotining shoh asari, ulug' Homer tomonidan miloddan avvalgi 8 asrda yaratilgan azim obida "Iliada" o'zbek tiliga Qodir Mirmuhammedov tarjimasini orqali rus tilidan kirib kelgan. Bu asarda qadimgi yunon xalqining turmush-tarzi, etnografiyasi, madaniyati va tarixi haqida so'z boradi. Talabalarga Iliadani personajlarining harakterini ochib berish, shu maqsadni ifodalovchi ibora va jummalarning mazmunini, ya'ni asl va ko'chma ma'nolarini tushuntirish, mavzuga taalluqli turli slayd va taqdimotlar qo'yib berish asarning puxta tushunib olinishiga yordam beradi. O'quvchi ruhiyati boy, dunyoqarashi keng, bilimi chuqur bo'lsa, fikrlari ham, mulohazalari ham asosli, mantiqli bo'ladi. Jahon adabiyotini o'qitish va tahlil

qilishdan ko‘zlanuvchi metodik maqsadlardan eng muhimi mustaqil fikrlash, ravon so‘zlash, tafakkur shakllariga tayanib hayot hodisalari zamiridagi ma’nomlarni anglab olishga yo‘llashdir. Darhaqiqat, yuqorida so‘z yuritilgan asar "Iliada"da kulgu yoki pand-nasihatlar ortiga yashiringan mohiyatni tushunib xulosa chiqarish va uzviy aloqadorlikdagi jarayondir. Iliada-Troya urushi haqidagi rivoyatlar asosida 9-8 asrlarda paydo bo‘lgan. Gekzometr(musaddas)o‘lchovida yozilgan (15700 misraga yaqin). Iliadaning bosh qahramoni–Axill. Buyuk yo‘lboshchisi Agamemnon tomonidan haqoratlangan "Axillning qahri" doston mavzusining asosini tashkil etadi.Unda yakkama-yakka qahramonona jang manzaralari, qamal qilingan Troyadagi hayot lavhalari, ma'budalarning Olimpdagi munozaralari, mutoyibali tasvirlangan. Ushbu asarni o‘quvchi o‘qir ekan (garchi afsona bo‘lsa ham) insoniyat uchun or-nomus tuyg‘usi, oila sha'ni qanchalik muqaddas ekanligini yanada chuqurroq anglaydi.Bu tuyg‘ularning toptalishiga qarshi kurashgan Menelay, Agamemnon, Nestor obrazlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.Insonning do‘stiga suyanishi, hatto u uchun jonini ham berishga tayyorligi necha asrlardan buyon muqaddas fazilat ekanligi Ayoks, Axilles, Patrokl obrazlarida yorqin tasvirlangan bo‘lib bu orqali kitobxon ona vatan himoyasi uchun hamma narsadan voz kechishi va bunday fazilatlardan o‘ziga keraklisini olib qolishiga chorlanadi. Jahon adabiyoti namunalarini o‘rgatishda O‘zbek adabiyoti bilan qiyosiy tarzda tahlil qilish talabani tez fikrlash va sintez qilishga undaydi. Ayniqsa, u maktabda o‘rgangan xalq dostonlaridan biri bo‘lsa, voqealar rivoji, syujet va motivlardagi birlashtiruvchi belgilarni tez aniqlaydi.



Dostondagi qahramonlar obrazini ochib berishda “Pasport” metodini qo‘llash yaxshi samara beradi.Bu jarayonda obrazlar ismi yozilga ikki buklangan maxsus qog‘ozlar har bir talabaga yoki guruhga tarqatiladi. Talaba qog‘ozga qahramonning Yoshi, jinsi, millati, kasbi kabi bir qator so‘ralgan ma’lumotlarni yozishi kerak. Bu usuldan ommaviy baholash darslarida yoki mavzuni mustahkamlash qismida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Menelay	Axill
Yoshi _____	Yoshi _____
Jinsi _____	Jinsi _____
Millati _____	Millati _____
Kasbi _____	Kasbi _____
O‘limi _____	O‘limi _____

www.uzal.uz



“Men kimman?” metodidan foydalanish esa talabalarning obrazga kirishlarini osonlashtiradi. Qahramonning dardini tushunishga, qahramon tilidan nutq ijro qilishga undaydi. Asar qahramoni sifatida namoyon bo‘layotgan talaba obrazga o‘z dunyoqarashi va fikrlarini ham singdiradi. Hatto salbiy qahramonga ham ijobiy rakursdan qarashga intiladi. “Iliada” qahramonlari tilidan aytilgan izhorlarni boshqa talabalar topishlari va ijroga baho berishlari davomida darsni sifatli va samarali tashkil qilishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, jahon adabiyoti yoshlarni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalash uchun asosiy omillardan biridir. Iliada dostoni qahramonlari taqdiri orqali o‘quvchilarga doim g‘azablarini saqlay olishlari va turli urushlar, ziddiyatlarni kelib chiqishini oldini olishga o‘rgatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A History of Ancient Greek literature. Gilbert Murray. 2008. D.Appleton and company. P.460
2. Алимухамедов А. Антик адабиёти тарихи. - Т.: Укувчи, 1980.
3. Тронский И.М. История античной литературы. - М. Высшая школа, 1988
4. Qosimov A. Xo‘jayev S. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha. -Farg‘ona: 2016.
5. Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилд: Кадимги давр. - Т.: Mumtoz soz, 2012.
6. ХомеР- Илиада. - Т.: Е.Гулом ном. адаб. ва санъат нашр. 1998.